

G'ofur G'ulomning "Shum bola" "Mening o'g'rigina bolam" hikoyalari saralangan she'rlari tahlili

Usarova Laylo Ibragimovna O'zbekiston -Finlyandiya pedogogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Eshmurodova Dilafruz Xamroqul qizi O'zbekiston - Finlyandiya pedogogika instituti Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi

ANNOTASIYA *Ushbu maqolada o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda hikoyalar tahlili va taqqoslab o'rganishning ahamiyati haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.*

KALIT SO'ZLAR: *makon ,zamon,vaqt,asar,fojia ,she'r*

MODEL EXAMPLES IN THE POEMS OF G'OFUR G'ULOM

In student of the first course of the Finland-Pedagogical Institute of Samarqand in Uzbekistan

ABSTRACT *The article contains thoughts and opinions about the importance of story analysis and comparison in the formation of students worldview*

G'ofur G'ulom asarlari haqida so'z ketganda,bobomiz hayot yo'liga ham to'xtalib o'tishimiz kerak . G'ofur G'ulom 1903-yilning 10-mayida Toshkent shahrida tug'ilgan.Bobomiz ijodida ko'plab she'rlar va asarlari mavjud.

Har bir asarning paydo bo'lishida uning o'z tarixi ,yaratilish sabablari bor, ayrim asarlar bor zarurat tufayli yoziladi, ayrim asarlar borki mashhurlik uchun yoziladi, lekin G'ofur G'ulomning "Shum bola" asari zamon ruhiyatini ,mustamlaka davrining zulmlarini o'zida yaqqol aks etgan asar hisoblanadi.

"Shum bola"qissasi o'zining hayot yo'li yoritib berilgan asari sanaladi.U ko'pchilikning e'tiborini qozongan asari ham hisoblanadi.Ushbu avtobiografik asarida yozuvchining bolaligi,asar boshidagi Toshkent hayoti to'liq tasvirlangan.Bu

asar hajviy tuyulgani bilan undagi voqealar ,hodisalar e'tibor berilsa jiddiy o'y fikrlar,tahliliy mulohazalarni ham ko'rishimiz mumkin.

Bu asarlar orqali bobomiz ikkinchi jahon urushi arafasida davlatlarning o'sha davrdagi qiyofasi ,mahallalardagi hayot tarzi ,siyosiy jarayonlar,ish va ishsizlik, qashshoqlik va uning yuzaga kelish sabablarini o'ziga xos tarzda yoritishni maqsad qilgan.Bu ikki asarni o'xshash jihati makon va zamonga oid o'zgarishlarning borligi.Haqiqatdan ham hikoya qahramonlarning ijtimoiy muhit ta'sirida amalga oshirgan vazifalari va ularning kelgusida kutib turgan noxush vazifalar adabiy - badiiy jihatdan tarkibga solingan va me'yorlashtirilgan qoliblar asosida amalga oshiriladi.

Shum bola hikoyani,o'zi o'sgan muhit bilan tanishtirishdan boshlaydi.Shum bolaning aytishicha,"bozorda Sanobar yurgan daydi bolalar uchun quvonchli ermaklardan biri bozor ,mahalla ,ko'cha ko'yda jinnilari edi.O'sha yillar Toshkentda shunaqa ham jinni ko'p ediki,sanab sanog'iga yetolmayman".Jinnilarning fe'l - atvoridagi kulguli holatlarni hikoya qilarkan shum bola ularning fojia taqdiriga ham to'xtaladi.Davrning jadidlar tanqid qilgan deyarli barcha illatlari "Shum bola"badiiy voqeayligida u yoki bu darajada o'z ifodasini topgan.

Biz asarni tahlil qilib o'rganadigan bo'lsak ,shu davrda bolalarning sayoq yurib,ko'cha ,bozor kelishlari,o'z boshidan turli xil sarguzashtlarni o'tkazishlari ko'rsatilgan.Bu esa,o'z navbatida bolalarning mayda bezorilik,o'g'rilik,firibgarlikka aralashib qolishiga sabab bo'lgan.Qissadagi hayot tasviridan "ortiq bu tarzda yashab bo'lmaydi ,jamiyat isloh qilinish kerak"degan xulosa kelib chiqadi.Bobomoz mehnatkash xalq hayotini "ichdan"tasvirlangan.Ya'ni bobomiz bu hayotni ichida bo'lgan, sirtidan kuzatmagan.

G'.G'ulomning "Shum bola"asarida insoniy muommolarni ifodalash ,ularning yechimini izlash va o'ziga xoslikni qamrab olgan odatni izohlash orqali ,shoiriy uslubni rivojlantirgan va ma'naviyatni o'rgangan.Bu asar o'zbek adabiyoti va yozuvchiligi tarixida ,milliy ma'naviyatning yuksalish davrida ,o'zbek tilidagi zamonaviy va adabiy uslub va an'analarni yaratishda katta ahamiyatga ega bo'lgan

eng yaxshi asarlardan biri deb hisoblanadi.

"Shum bola" asari o'zbek adabiyoti va yozuvchilik tarixida milliy, ijodiy-ma'naviy, shoiriy yutuqlar, badiiy qahramonlar, insoniy muommalarni ifodalash, ijodiy uslub va ma'naviyatning tarqatilishi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib boradi. Bularning barchasi "Shum bola" asarining o'ziga xosligi va uning yaratilishi bo'yicha umumiy tasvirlash uchun muhimdir va shu asarning milliy va jahon adabiyoti tarixidagi o'rni hamda qadimiy uslublarni o'z ichiga olganligi aniqdir.

"Mening o'g'rigina bolam" nomi ostida jamlangan qissalar va hikoyalar o'zbekona hayot tarzdi, insonlardagi mehr -oqibat kabilarni anglaydi. Taqdir boshlagan ko'chalarning so'qmoqlaridan bir-bir o'tib, unda o'z yaqinlarini ko'rganday bo'ladi. O'zbek xalqining necha asrlardan beri meros bo'lib kelayotgan urf-odatlarida ichida eng qadrlidir mehmondo'st xalqni ko'radi.

Bu asarni yozuvchi hayotida sodir bo'lgan voqea asosida yaratgan. Aslida, biron kimni uyiga o'g'ri tushishi bu favqulotda holat hisoblanadi. Lekin bu asarda yetimlar oilasiga tushganda, sokin, odatiy holatdan tuyuladi. O'sha paytlar o'lkani "general gubernator" deb ataluvchi harbiy kimsalar idora qilgan. Turli xil shaklda xalqni "qiynagan".

"Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi qahramonlarni, aslida mana shu urushning tirik qurbonlaridir. Bu yerdagi gap faqat "qora buvi" va "o'g'rigina bola" dagina emas. Ular suhbatida ortida norasida bolalar, ayollar va keksalar taqdiri ham turibdi. Zero, ayni shular urush asoratlarini qiyinchiliklarini ko'proq his qiladilar. Shu tufayli, ham muallif hikoyachi bola tilidan "Buni qarang-a, bizning uyimizga ham o'g'ri kelibdi. Bizni ham odam deb yo'qlaydigan kishilar bor ekan-da dunyoda ..." deya kinoya qiladi. Demak, bunday oilalarni faqat o'g'rining ishini qiladigan hukmdorlar esa oilaning o'ziga kirmay ham maqsadni amalga oshira oladi. Bu joyida yozuvchi bolaga xos quvnoqlik, quvlikni ham aks ettiradi.

Bobomiz bu hikoyasi orqali jamiyatning qanday ahvolda ekanligini ko'rsatib bera olgan va insonlar qanchalik samimiy, mehr -muhabbatli ekanligini qahramonimiz Roqiyabibi obrazida ko'rsatib o'tilgan va yoshgina bola bizning uyimizga ham o'g'ri tushibdi deb maqtanishi bu oddiy holday ko'rinishi mumkin

lekin bu men uchun juda achinarli holat .

Bobomizni she'rlari xuddi asarlari singari kitobxonlar tomonidan iliq kutib olingan .Misol qilib menga bobomizning "Sog'inish","Vaqt" she'rlari yoqadi

"Sog'inish"she'rida "o'zbek otasi "ning bo'rtma,umumiy ,hamma uchun tanish ,yaxlit siymosini aks ettirgan.Unda otalarimizga xos bo'lgan mehr-u muhabbati kuzatuvchanlin,andisha,tantilik barchasi shu she'rlarda namoyon bo'ladi.

Yozuvchi bobomiz "Vaqt" she'rida ko'z yumib o'tguncha o'tgan vaqtni tasvirlaydi. To'g'ri o'z umrini payonsiz deb o'ylaydigan aksariyat odamlar uchun vaqtning zarracha qadri yo'q.Ammo,yozuvchi bobomiz bu she'r orqali butun insoniyat hayoti uning quvonchi,tashvishi ,hatto qismati ham mana shu lahzalarda jo ekanligini isbotlaydi.

Aziz asrimizning aziz onlari ,
Aziz odamlardan so'raydi qadrin ,
Fursat g'animatdir ,shoh satrla birla ,
Bezamoq chog'idir umr daftarin.

G'.G'ulomning "Sen yetim emassan" she'ri ham kitobxonlar ko'nglidan joy olgan . Bu she'r ham xitob ham nido bo'lib, shu so'zning o'zi magik qudratga ega. Urushning dastlabki yilida nemislar vaqtincha bosib olgan yurtlardan ming-minglab aholi,xususan, ota- onasiz qolgan bolalar mamlakatning urushdan olis go'shalariga evakuatsiya qilindi, ya'ni ko'chirildi.

"Sen yetim emassan" she'ri ayni tuyg'u,mehr-shavqat va oliy vatanparvarlik tuyg'usining badiiy in'ikosi va izchil taraqqiysidir.

Ibn Qayyum aytadi:Aslida,inson vaqti uning umridir .Vaqt bulutlardek o'tib ketadi.Kishi o'z zamoni va vaqtining qadrini bilishi hatto biror lahzasini behuda o'tkazmasligi va shu asnoda eng afzal so'z va ishlarni bajarishi lozim.Doimo niyatini yaxshilikda bo'lishi va bajariladigan amallarida sustkashlik qilmasligi kerak.

Vaqtни qadrlay bilgan odam foydasiga yuradi.

Tinchlik,do'stlik va xalq baxtini o'z ijodida kuylagan G'.G'ulom asarlari ma'naviy dunyoqarashimizni beshigi bo'lib qolaveradi.2023-yilda 120 -yilligini

nishonlaymiz, bizdan keyinchi avlod ham atoqli shoirimizning hayoti va ijodini asrlar osha o'rganadi, ilhomlanadi. Yangi O'zbekiston tarixiy sahifasida G'ofur G'ulom o'zbek xalqining jo'shqin kurashchisi bo'lib muhrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

6-sinf adabiyoti kitobi 1-qism (eski nashr) 6-bet

8-sinf adabiyoti 9-mavzu

Karimov N.(2008) XX asr adabiyoti manzaralari T O'zbekiston

G'ofur G'ulom (2019) Mening o'g'rigina bolam -T . Yangi asr avlodi.

Tanlangan asarlar .nazm va nasr .G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi, 2021-352 bet.

G'.G'ulom xotiralarda to'plami .Toshkent .2021.208 bet.

Karimov N.(2008) Adabiyot manzaralari .T; O'zbekiston

Abdullayeva O.(2021) Badiiy asarlarning inson ruhiyatiga ta'siri .

Naim Karimov.G'ofur G'ulom. G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2003.

G'ofur G'ulom . Mukammal asarlar to'plami .